

## TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

**Abdullahjonov Ilyosjon Ixtiyor o'g'li**  
*Jizzax shahar 12-maktab ma'naviy-ma'rifiy  
ishlar bo'yicha direktor o'rindbosari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim tizimida keyingi besh yil ichida qilinadigan ijobiy o'zgarishlar va maktab o'qituvchilarini moliyaviy va ma'naviy rag'batlantirish haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar: maktab, DTM, attestatsiya, akkreditatsiya**

Xalq ta'limi sohasida keyingi besh yilda 1,9 millionta o'quvchi o'rni yaratish, ta'limda zamonaviy metodikalarga o'tish, bitiruvchilar attestatsiyasini DTMga o'tkazish, o'qituvchilar savyasiga talablarni kuchaytirish, maktablarga qisman moliyaviy va akademik mustaqillik berish, maktablarni akkreditatsiyalash, direktorlarni sertifikatsiyalash, bolalarni kasbga yo'naltirish va boshqa o'zgarishlar kutilmoqda. 12 may kuni prezident Shavkat Mirziyoyev "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" farmon va "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaror imzoladi.

2026 yilgacha 1,9 millionta o'quvchi o'rni yaratish mo'ljallanmoqda

2022-2026 yillarda umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash hisobiga 1,2 million o'quvchi o'rni miqdoridagi yangi quvvatlar yaratish vazifasi qo'yildi. Xuddi shu yillarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida umumiyligi o'rta ta'limda yana 700 ming o'quvchi o'rni miqdoridagi yangi quvvatlar yaratilishi belgilandi. Maktablarga internet, kompyuterlar va ustaxonalar

2022 yil I sentabrga qadar 2023-2024 yillarda maktablarda ma'nani eskirgan kompyuter sinflarini yangilash bo'yicha dastur Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritiladi. 2022/2023 o'quv yilidan boshlab 400 nafargacha o'quvchisi bo'lgan umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida internet tezligi kamida 40 Mbit/s, o'quvchilar soni 400 nafardan yuqori bo'lganlarda kamida 100 Mbit/s bo'lishi ta'minlanadi.

Maktablarni yuqori tezlikdagi internetga ulash uchun zarur mablag'larni ajratish vazifasi hokimlarga yuklatildi. 2022 yil I avgustga qadar umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarining texnologiya fani ustaxonalari hamda kasb-hunar amaliyoti xonalarining namunaviy loyihalari ishlab chiqilib, tasdiqlanadi. Bu xonalarni bosqichma-bosqich tashkil etish va jihozlashga hokimlar mas'ul bo'ladi.

II-sinflardan yakuniy attestatsiyani DTM oladi. 2024 yildan boshlab umumiyligi o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari hamda kasb-hunar maktablari bitiruvchilari uchun yakuniy davlat attestatsiyasini Davlat test markazi tomonidan imtihonlar shaklida o'tkazish yo'lga qo'yiladi. Prezidentning bu boradagi qarori loyihasi Vazirlar Mahkamasiga 2022 yil I sentabrgacha kiritilishi zarur. Maktab binolarini sotib yuborish taqiqlandi. Qaror bilan, Xalq ta'limi vazirligining ta'lim berishiga mo'ljallangan binolari va inshootlarini ta'lim sohasidan tashqari boshqa maqsadlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarga berish taqiqlandi.

Pedagog kadrlarni kompetensiyalarga asoslangan va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalar bo'yicha o'qitish amaliyoti joriy qilinadigan bo'ldi. Bu zamonaviy metodikalarni joriy qilishda:

— 2022 yil I sentabrga qadar Pedagogika markazlariga aniq va tabiiy fanlar bo'yicha malakali xorijiy mutaxassislar jalg qilinadi;

— 2022 yil I iyulga qadar Pedagogika markazlari huzurida xorijiy mutaxassislar, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliv ta'lim tashkilotlari hamda Pedagogika markazlarining malakali xodimlaridan iborat bo'lgan trenerlar guruhlari shakllantiriladi;

— 2022 yil yakuniga qadar trenerlar guruhlari bilan birgalikda joylarga chiqqan holda kamida 20 foiz umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagoglar uchun zamonaviy metodikalarga asoslangan sayyor o'quv mashg'ulot va seminar-treninglar o'tkaziladi;

— pedagog kadrlarning malakasini oshirishga bevosita jalg qilingan trenerlarga ularning ish faoliyati natijasiga qarab, oylik ish haqiga 100 foizgacha miqdorda qo'shimcha ustama haq to'lab boriladi;

O'qituvchilarning bilim darajasini baholashning yangi tizimi

2023 yil I avgustga qadar, ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlarni jalg qilgan holda, pedagog kadrlarning umumta'lism fanlari bo'yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimi ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.

2024 yil I yanvarga qadar bu baholash tizimining xalqaro standartlar talablariga javob berishi sertifikatsiyadan o'tkaziladi.

O'qituvchilarga yangi ustamalar

2022 yil I sentabrdan boshlab, XTV tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida:

a) umumta'lism fanlari bo'yicha tegishli darajadagi sertifikatga ega pedagog kadrlarga har oylik qo'shimcha ustama quyidagi tartibda to'lanadi:

- xalqaro tan olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida;

- xalqaro standartlar talablariga javob beradigan milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida. Bunda, milliy baholash tizimining xalqaro standartlar talablariga javob berishi vakolatli xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim;

- xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlanmagan milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida (chet tili bo'yicha sertifikatlar bundan mustasno);

b) xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlanmagan DTMning milliy baholash tizimida chet tili bo'yicha olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga har oylik qo'shimcha ustama:

- 2025 yil I yanvarga qadar – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida;

- 2025 yil I yanvardan boshlab – ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida to'lanadi;

v) har oylik qo'shimcha ustama sertifikat amal qilish muddati davomida, lekin uch yildan ko'p bo'lmagan vaqt mobaynida to'lanadi;

g) umumta'lism fanlari bo'yicha bir nechta sertifikatga ega bo'lgan pedagog kadrlarga har oylik qo'shimcha ustama yuqoriyoq ustama olish huquqini beruvchi sertifikat bo'yicha to'lanadi.

Maktabga ishga kirish uchun ariza onlayn beriladi

2022 yil 1 sentabrga qadar fan o‘qituvchisi va maktab direktori lavozimlari uchun tanlovda ishtirok etishga onlayn ariza topshirish va nomzod haqida ma’lumotlarni joylashtirish imkonini beradigan maxsus elektron portal yaratiladi.

Maxsus elektron portalda amaldagi hamda istiqbolda kadrlarga bo’lgan ehtiyoj, shuningdek, vakant lavozimlar to‘g’risidagi ma’lumotlarni umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari va fanlar kesimida joylashtirish orqali milliy kadrlar zaxirasi shakllantiriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PF-5847-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son).

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-6108-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/I483-son).

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-4884-son Qarori. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 07/20/4884/I484-son).